

UDK 711

**O'ZBEKISTONDA MASJIDLAR JOYLASHUVIDA DEMOGRAFIK VA
SOTSIOLOGIK OMILLARNING RO'LI**

Safarova Shohista Komil qizi magistrant
Ziyayev Abdumannop Abduraximovich prof
Toshkent Arxitektura-Qurilish Universiteti

Annotatsiya: *Ushbu ma'lumotlar yordamida islom dini borasida shahar va qishloqlarda masjidlar joylashuviga demografik va sotsiologik omillarning ta'siri kengroq yoritib berishga harakat qilingan. Shu bilan birga alohida din sotsiologiyasiga ham to'xtalib o'tilgan.*

Аннотация: *С помощью этих данных была предпринята попытка пролить больше света на влияние демографических и социологических факторов на размещение мечетей в городах и селах относительно религии ислам. В то же время была затронута и социология религии.*

Annotation: *With the help of these data, an attempt was made to shed more light on the influence of demographic and sociological factors on the location of mosques in cities and villages regarding the religion of Islam. At the same time, the sociology of religion was also touched upon.*

Kalit so'zlar: *reproduktiv mayl, endogen omil, ekzogen omil, aholi migratsiyasi, migratsiya saldos, din sotsiologiyasi.*

KIRISH

Demografik vaziyat ma'lum davrdagi ma'lum hududning demografik holatidir. U aholining soni, tarkibi va demografik jarayonlari asosida yuzaga keladi. Aholi geografiyasi va demografik tadqiqotlarda aholi soni eng asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlarni tahlil etganda uning mutloq va nisbiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Shu bilan birga aholi ko'payishi biologik jarayon bo'lib, u insonning reproduktiv maylidir. Reprodukativ mayl esa ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy omillar ta'sirida o'zgarib boradi.

Asosiy qism. Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillardan ayollarning jamiyatdagi o'rni ahamiyatli bo'lib, ayollarning bilim darajasi va ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi oiladagi farzandlar soniga ta'sir etadi. Yevropa davlatlarida ayollarning 45-50 % i xalq xo'jaligida band bo'lsa, Osiyo davlatlarida 5 % i ishlab chiqarishda qatnashadi. Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ishtirok etishi hududiy tarkibda bir-biridan keskin farq qiladi. Shu boisd, shahar aholisi va qishloq aholisi o'rtasida tug'ilish darajasi har xil dinamikada boradi.

Aholi takror barpo bo'lishida tug'ilish bilan birga o'lim jarayoniga ham bog'liq bo'lib, dunyo sivilizatsiyasida aholi o'rtasidagi o'lim ko'rsatkichining pasayishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Mazkur omil ikki guruhda: ichki (endogen); tashqi

(ekzogen) omillarda namoyon bo'ladi. Endogen omil – biologic qarish hisoblanib, keksa yoshdagi aholi ko'proq o'lim topadi. Hatto me'yoriy hodisa deb qaraladi, biroq endogen omilda yoshlar qatlamida ham irsiy bo'lgan va irsiy bo'lmagan kasalliklar oqibatida ham o'lim kuzatiladi. Ekzogen omil – tashqi ta'sir bilan bog'liq o'lim omili hisoblanib, turli yoshdagi aholi vafot etishidir. Bunda kasb kasalliklari, og'ir mehnat, baxtsiz hodisalar, zaharlanish, narkomaniya, alkogolizm va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Hozirgi zamon sanoati, urbanizatsiya, texnik taraqqiyot, avtomatlashtirish, xalq xo'jaligini kimyolashtirish natijasida, atrof-muhitning, atmosfera havosining buzilishi, oqar suvlarning ifloslanishi, o'lim hodisasining yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Aholi takror barpo bo'lishi uch asosiy: tabiiy, hududiy (migratsiya) va sotsial harakatlar yig'indisiga asoslanadi. Shaharsozlik asoslariga taluqli migratsiya jarayoni yosh va jinsga ko'ra farqlanib, ayollar va erkaklar muayyan joydan bir xil miqdorda ko'chishmaydi, ya'ni migratsiya xarakatchanligi erkaklarda yuqori, ammo uzoq masofaga migratsiya xarakati ayollarda yuqoriroqdir. Ayniqsa bu holat rivojlanayotgan mamlakatlarda namoyon bo'lib, jamiyatda ayollarning mavqe'i oshib borishi bilan migratsiyada ishtirok etish darajasi erkaklar bilan tenglashadi.

Aholi migratsiyasi — aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chish hisoblanib, aholining oddiy mexanik ko'chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko'p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi.

Aholi migratsiyasi doimiy (turar joyini uzil-kesil o'zgartirish), vaqtincha (shartnoma asosida ma'lum muddatga ishga, o'qishga va boshqa sabablar bilan mamlakatdagi bir ma'muriy-hududiy birlikdan boshqasiga borish, yoxud xorijga ketish), mavsumiy (iqtisodiyot tarmoklari — qishloq xo'jalik, undiruvchi sanoat sohasi yumushlari, davolanish, dam olish va boshqa sabablarga ko'ra ko'chish), mayatniksimon (mokisimon) (ertalab ishga, o'qishga ketib, kechqurun uyiga qaytib kelish) migratsiya turlariga bo'ladi. Ma'lum vaqt davomida hududga ko'chib kelgan va ko'chib ketgan kishilar soni o'rtasidagi farq migratsiya saldosi deyiladi. Ba'zan migratsiyaga turizm, kurortga borish, ziyorat, shuningdek mokisimon qatnovchilarni ham kiritiladi, lekin turar joyini o'zgartirmagani uchun ularni aholi migratsiyasiga kiritilmaydi.

Hamisha qishloq aholisi shahar aholisiga nisbatan tabiiy ko'payish darajasi yuqori bo'lib, agrar davlatlar qishloq joylarida tug'ilish darajasi 30-40 % dan oshadi. Qishloq aholisi hisobiga shahar aholisi o'sib boradi. Natijada, urbanizatsiya jarayoni tug'ilishga asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini o'tkazadi.

Din ko'pgina mamlakatlarda ichki siyosiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Turli tarixiy voqealar va hozirda ro'y berayotgan hodisalar hamda milliy munosabatlar mohiyatini tushunish uchun o'sha mamlakat yoki mintaqa aholisi diniy tarkibiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Musulmonlar orasida tug'ilishning yuqoriligi sabab, keyingi yillarda ularning soni nasroniylardan oshib ketgan. Ularning taxminan 90 % i sunniylar va 10 % iga yaqini shiyalardan iborat. Islomga e'tiqod qiluvchilar asosan Shimoliy Afrika va Osiyoda (sharqiy qismi bundan mustasno) jamlangan.

Ijtimoiy hayotning muhim jabhasi bo'lgan din va diniy e'tiqod masalasi sotsiologiya fanining muhim ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Sotsiologiya jamiyat hayotini o'rganar ekan, shu hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan va ayni paytda unga kuchli ta'sir o'tkazuvchi omil – din doimo uning asosiy diqqat markazi bo'lgan. Sotsiologiya fanining asoschisi hisoblanuvchi O. Kont jamiyat taraqqiyotini davrlarga bo'lgan va dinga asosiy mezonlaridan biri sifatida qaragan. Uning tasniflashicha insoniyat o'z rivojida uch bosqichni bosib o'tadi. Bular quyidagilar; teologik, metafizik, va ilmiy bosqichlar. Kont firicha, har uchala bosqichda ham din muayyan ro'l o'ynaydi.

Dinning asosiy belgilaridan biri ilohiy kuchga, ya'ni xudoga ishonish, deb belgilanadi. Holbuki, dunyoda shunday dinlar borki, ularda xudo tushunchasi umuman yo'q.

Islomning kengayib borishi, ayniqsa, diniy qonun-qoidalar hayot tarzi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab intellektual faoliyat va bilimlarni keltirib chiqargan. Ko'pgina allomalar o'z umrlarini shu mavzuda o'qish va o'rganishga bag'ishlagan. Bu olimlardan ba'zilari o'z ishlarini shu darajada rivojlantirganki, ko'p o'tmasdan o'z ta'limotlari asosida mazhablar yuzaga kelgan. Islomda sunniylik va shia yo'nalishlari bo'lib, ular ham o'z navbatida bir qator mazhablarga bo'linadi. Musumon dini dunyoning besh qit'asida va deyarli barcha mamlakatlarda mavjud: Saudiya Arabiston, Liviya, Birlashgan Arab Amirliklari, Iordaniya, Jazoir, Pokiston, Eron. Islom dinida ham mo'tadil va aqidaparast oqimlar mavjud.

O'zbekistonda dinning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini o'rganish, uning atrofidagi muammolar yechimini topish dolzarb vazifalardan sanaladi. Ma'lumki, 1400 yillik tarixga ega islom madaniyati ilm-fan va taraqqiyotga hissa qo'shib kelmoqda. Mamlakatimizda milliy mustaqillik e'lon qilingan kunlardanoq islom diniga umuminsoniy qadriyat sifatida e'tibor qaratildi. Islomiy qadriyatlarni o'rganish va uyg'otish borasida ulkan ishlar qilindi.

Shunday qilib din sotsiologiyasi ijtimoiy fikrda din atamasi bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy xulqni o'rganadi. Mustaqil O'zbekistonda dinga milliy qadriyat sifatida qaralishi xalq ongida ushbu hodisaga nisbatan to'g'ri xolis munosabatning shakllanishiga zamin bo'ldi.

Insoniyat va shaharlarning rivojlanish tarixiga sotsiologik jihatdan nazar soladigan bo'lsak, shahar muhitining inson hayotiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlash mumkin. Shaharlashish hayotimizning ajralmas bo'lagi bo'lib, shahar sotsiologiyasining hududlar rivojlanishini va aholiga ko'rsatayotgan ta'sirlarini doimiy ravishda o'rganishi, insoniyat yashash muhitini, uning sotsiomadaniy qiyofasini himoya qiluvchi yechimlarni topishi va hayotga tadbiq qilishi muhim masala sanaladi. Urbanizatsiya jarayonlarining asosiy natijalari nazarimizda quyidagilar bilan bog'liq:

- barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash;
- aholi turmushining sifatini yaxshilash va darajasini ko'tarish;
- uy-joy, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari qurilishini keng miqyosda amalga oshirish;
- yer uchastkalaridan samarali foydalanish;
- shaharlarni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda kompleks rivojlantirish;
- industrial-innovasion rivojlanishning ustuvor vazifalarini hal etish va raqamli iqtisodiyotni qo'llash;
- katta, o'rta va kichik shaharlar rivojlanishini maqbullashtirish;
- shahar aglomeratsiyalari orqali ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning samarali shakllarini tatbiq etish;
- shaharlarda sanoat zonalari, texnoparklar, innovatsiya markazlarini tashkil etish.

O'rta Osiyoda shaharlarning paydo bo'lish tarixi ming yilliklarga borib taqaladi. Buyuk Ipak yo'lining rivojlanishi davomida Toshkent, O'sh, Xo'jand, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va boshqa shaharlar qit'alararo savdo, o'zaro ta'sirlar va dunyo madaniyatlarining bir-birini tanishi hamda anglashi markazlariga aylangan. Hozirgi bosqichda tarixiy sharoitlar, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy muhit o'zgarib, bu mintaqadagi shaharlarning tuzilishi va ahamiyatiga o'z ta'siri ko'rsatgan. Sobiq ittifoq davrini oladigan bo'lsak yalpi iqtisodiyotdan kelib chiqqan holda kompleks ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangi shaharlar tashkil etilgan. Ushbu shaharchalarning ko'pi bitta shaharni tashkil etuvchi korxonalar atrofida tashkil etilgan. 1991 yildan boshlab O'rta Osiyodagi shaharlarning katta qismida iqtisodiy faollikning pasayishi va mos ravishda mahalliy byudjet daromadlarining qisqarishi, shahar infratuzilmasining vayron bo'lishi jaryoni yuzaga keldi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shahar boshqaruvining imkoniyatlari cheklangan.

Markaziy Osiyo davlatlari shaharsozlik tizimini yaratish va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga urinishlarida shaharlarning rivojlanishiga turlicha yondashadi. Har bir davlatning muvaffaqiyatlari va kamchiliklari bor, ular hukumatlarga va rivojlanish bo'yicha sheriklarga o'z siyosatlarini takomillashtirish va Markaziy Osiyoda shahar rivojlanishining kelajakdagi muammolariga javob topish uchun sinchkovlik bilan o'rganishga loyiqdir. Mamlakatimizda mavjud bo'lgan shaharlardan 172 tasi yirik shaharlar sanalsa, qolgan ikki yuzdan ortig'i o'rta (16ta) va kichik shaharlardir. Demak, kichik shaharlar aholisining urbanizatsiya va sanoatlashish natijasida qanday sotsio-madaniy o'zgarishlarga uchrashini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shaharlarning sotsio-madaniy qiyofasi va urbanizatsiya jarayoni ikki tomonlama o'zaro ta'sirga ega bo'lgan juftlik sanaladi. Shaharlarning rivojlanishini va aholining turmush tarzini mazkur hududlarning sotsial-iqtisodiy mohiyati hamda madaniy potentsiali orqali o'rgangan yondashuv ham qiziqroqdir. Bugungi kunda chet el sotsiologiyasida urbanizatsiya

jarayoni va sotsial evolyusiyani bir-biriga taqqoslab, shaharlashishni sotsial evolyusiyaga bog'liq bo'lgan davriy jarayon sifatida baholash keng tarqalgan. Mazkur yo'nalish tarafdorlari J.V.Biverstok, R.G.Smit, P.J.Teylor, R.B.Koen, Dj.Fridman, P.Noks, P.Markyuz, R.Kempen, A.Sachar, J.R.Short, Y.Kim, M.P.Smit, S.Sessen lar o'zlarining ishlari bilan ko'pchilikning nazariga tushgan. XIX-XX asrlardagi chet el olimlarining tadqiqot ishlarida aholining migratsiya, ijtimoiy moslashuv, shaxsning shahar muhitida o'zini tutishi, etnik guruhlarining hayoti va shaharlashish jarayonlari o'z aksini topgan.

Urbanizatsiya fenomeni rivojlanish evolyutsiyasini o'rganishda ularning xomashyo, energiya resurslari, transport magistrallari, yirik markazlarga nisbatan iqtisodiy-geografik joylashuviga asosiy urg'u berish kerak bo'ladi. Chunki aynan ular shaharlarning asosiy va muhim xususiyatlarini belgilab beradi. Shaharlarning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qilib beruvchi madaniy merosi, qadriyatlarini, insonlarning taqvodorlik darajasi xali to'laqonli tahlil qilib o'rganilmagan. Ushbu kriteriyalar orqali shaharlardagi masjidlarining ham tipologiyasi uchun asos sifatida o'rganish ham maqsadga muvoffiq. "Shaharlar madaniy merosi" tushunchasi mohiyatining tahlili YuNESKOning nomoddiy madaniy meros, madaniy xilma-xillik, madaniy turizmning rivojlanishi Konvensiyalari hamda mamlakatimiz xalqlarining nomoddiy madaniy meroslarini saqlashga bag'ishlangan qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Shaharlar rivojlanishi jarayonlari MDH olimlari tomonidan ham keng tadqiq qilingan.

Xulosa. Aholining sotsiomadaniy jihatdan rivojlanishi ko'p qirrali jarayon bo'lgani uchun deyarli barcha ijtimoiy fanlar nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi. Falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya kabi fanlar ushbu jarayonni o'z usullari asosida bevosita o'rganadi. A. Qo'ziev, A.Mirzaahmedovlarning nomzodlik dissertatsiyalarida shaharlashish jarayonining aholi milliy qadriyatlariga ta'siri nazariy jihatdan o'rganilgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda kichik va o'rta shaharlarning rivojlanishi hamda ularda yashovchi aholining iqtisodiy, psixologik va sotsio-madaniy qiyofasini o'rganishga doir qator izlanishlar olib borildi. Misol uchun 2010 yilda O'zbekiston og'zaki tarixchilari guruhi tomonidan Alisher Sobirov boshchiligida "O'zbekiston kichik shaharlarining hayoti sotsio-madaniy aspekti" nomli loyiha amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqot natijasida O'zbekistondagi barcha kichik shaharlarga xos bo'lgan muammo, ya'ni sotsio-madaniy qiyofaning yo'qolishi namoyon bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (MANBALAR) RO'YXATI:

1. Ibragimova A. A. / Sotsial-iqtisodiy kartografiya. Toshkent 2020 yil.
2. Tulemetova G. T., Hasanboyev O'. M. / Dinshunoslik. Toshkent 2021 yil.